
EYIB
EDUCATIONAL YIELD
INSIGHTS & BREAKTHROUGHS
TA'LIMGA OID TUSHUNCHALAR VA YUTUQLAR
ISSN:3060-4648
Vol.8 №3
https://eyib.uz



Yangi O‘zbekistonda maktabgacha ta’limni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

Zoxidova Gulira’no	*O‘zMPU Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich magistranti*
N.B. Kuvvatov	*Ilmiy rahbar: falsafa doktori (DSc), professor*

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Taraqqiyot strategiyasi” va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etish, ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish hamda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada maktabgacha ta’lim tizimida mavjud muammolarni bartaraf etish, ta’lim sifatini oshirish va sohani yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: “Taraqqiyot strategiyasi”, “O‘zbekiston – 2030” maktabgacha ta’lim tashkilotlarini modernizatsiya qilish, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, pedagogik kadrlar, innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiyalar, maktabga tayyorlov, ta’lim sifati.

Аннотация: В данной статье освещены приоритетные направления модернизации и развития системы дошкольного образования в рамках “Стратегии развития” и стратегии “Узбекистан – 2030”. Проанализированы вопросы внедрения современных педагогических методов в дошкольных образовательных организациях, совершенствования деятельности образовательных учреждений, а также подготовки детей к школьному обучению. Кроме того, в статье рассмотрены научно-практические подходы, направленные на устранение существующих проблем в системе дошкольного образования, повышение качества обучения и дальнейшее совершенствование данной сферы.

Ключевые слова: “Стратегия развития”, “Узбекистан – 2030”, модернизация дошкольных образовательных организаций, государственная учебная программа “Илк кадам” (“Первый шаг”), педагогические кадры, инновационный подход, педагогические технологии, подготовка к школе, качество образования.

Abstract: This article highlights the priority areas for the modernization and development of the preschool education system within the framework of the “Development Strategy” and the “ Uzbekistan – 2030 ” Strategy. The issues of

introducing modern pedagogical methods in preschool educational organizations, improving the activities of educational institutions, and preparing children for school education are analyzed. In addition, the article examines scientific and practical approaches aimed at addressing existing challenges in the preschool education system, enhancing the quality of education, and further improving the sector.

Keywords: “Development Strategy”, “Uzbekistan – 2030”, modernization of preschool educational organizations, “Ilk Kadam” (“First Step”) state curriculum, pedagogical staff, innovative approach, pedagogical technologies, school readiness, quality of education.

Kundan-kunga rivojlanib, taraqqiy etib borayotgan mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim tizimining muhim va boshlang‘ich bo‘g‘ini maktabgacha ta’lim hisoblanadi. Ushbu sohani rivojlantirish maqsadida zamonaviy texnologiyalar va yangi investitsiyalar joriy etilmoqda. Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da (38-va 39-maqsadlar) maktabgacha ta’lim qamrovini kamida 80 foizga, 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlov bilan qamrab olishni 100 foizga yetkazish hamda pedagog kadrlar salohiyatini oshirish orqali ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish belgilangan[1]. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni 2023-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. “Mazkur hujjatda bolalarni maktabgacha ta’lim va tayyorlov guruhlari bilan to‘liq qamrab olish, “Top-500” ro‘yxatiga kiruvchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo‘shma ta’lim dasturi asosida ikki diplomli ta’lim tizimini joriy etish kabi vazifalar belgilangan.” Shu o‘rinda davlatimiz rahbari tomonidan maktabgacha ta’lim tizimining uzluksiz ta’limdagi o‘rni va ahamiyati alohida ta’kidlangan[2]. Darhaqiqat, bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning intellektual, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishi erta yoshdan boshlanadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va rivojlanish ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotiga qatnaydigan bolalarning ijtimoiy moslashuvi, muloqot ko‘nikmalari, fikrlash qobiliyati va dunyoqarashida muayyan rivojlanish farqlari kuzatiladi. Shu bois bugungi kunda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish, pedagog xodimlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va ularning mehnatini rag‘batlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Har qanday ilmiy tadqiqot yoki maqola muayyan maqsad va vazifalarga asoslanadi. Mazkur maqolaning maqsadi maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlarini o‘rganish, ta’lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, yaratilgan imkoniyatlarni tahlil qilish, pedagog

[1] Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF–60-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: lex.uz.

[2] Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida»gi PF–158-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: lex.uz.

xodimlarning mehnat faoliyati va ish haqi bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish hamda ta’lim tizimida mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini o‘rganishdan iborat.

Maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:

— Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini modernizatsiya qilish va zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash masalalarini o‘rganish.

— Bolalarda ijtimoiy moslashuvchanlikni shakllantirish, jamiyat va tengdoshlari bilan axloqiy me’yorlarga muvofiq muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

— Bolalarni psixologik jihatdan maktab ta’limiga tayyorlash.

— Og‘zaki nutq va tafakkurni rivojlantirish, o‘quv faoliyati ko‘nikmalarini shakllantirish hamda jismoniy faollikni oshirish.

— Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini o‘rganish.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu ustuvor yo‘nalishlar ichida maktabgacha ta’lim tizimiga ham alohida urg‘u berilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 11-moddasi maktabgacha ta’lim va tarbiya masalalariga bag‘ishlangan. Mazkur ta’lim turi bolalarning olti-yetti yoshgacha bo‘lgan davrida oilada va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. Ta’lim tizimini takomillashtirish maqsadida 2018-yilda maktabgacha ta’lim tizimiga oid takomillashtirilgan davlat talablari qabul qilindi[3]. Ushbu talablar asosida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasining 1997-yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun asosida “Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi yaratilgan bo‘lsa, bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari 2020-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun asosida takomillashtirilgan dastur bo‘yicha ish olib bormoqda[4]. Mazkur dastur davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan bir qatorda nodavlat va ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun ham asosiy o‘quv dasturi hisoblanadi. Pedagoglar ushbu dastur asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etadilar. Men ham maktabgacha ta’lim tashkilotidagi mehnat faoliyatim davomida mazkur dasturdan foydalanganman. Ta’lim jarayonini turli didaktik va musiqiy o‘yinlar orqali tashkil etish, bolalar uchun mazmunli kun tartibini shakllantirishda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi amaliy jihatdan muhim yordam bergan.

Dasturda bolalarni rivojlantirish markazlari faoliyatiga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu markazlar bolalarning har tomonlama rivojlanishi, mustaqil faoliyat yuritishi va ijtimoiy muhitga moslashishiga xizmat qiladi. Rivojlanish markazlari beshta asosiy yo‘nalishga bo‘linadi:

I. Qurish, konstruksiyalash va matematika.
II. Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish.
III. Til va nutq.

[3] Qarang: O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi «Ta’lim to‘g‘risida»gi 464-I-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: lex.uz.

4. Qarang: O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘RQ–637-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: lex.uz.

IV. Fan va tabiat.
V. San’at.

“Fan va tabiat” markazi faoliyatidan kelib chiqib, mehnat faoliyatim davomida 5–6 va 7 yoshli bolalar uchun rangli qum tayyorlaganman. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, ehtimoliy noxush holatlarning oldini olish maqsadida yodlangan tuz va iste’mol uchun yaroqli bo‘lgan bo‘yoqlardan foydalandim. Natijada turli rangdagi qum namunalari hosil qilindi. Ranglarning bolalar ruhiyatiga ta’sirini hisobga olgan holda, asosan, och ranglardan foydalanishga e’tibor qaratdim. Maktabgacha ta’lim jarayonida kichik detallarga ham alohida e’tibor berish zarur, deb hisoblayman.

Mutafakkir Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida ham tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. “Tarbiya oqillikni vujudga keltiradi. Kishining tarbiyasi bo’lmasa, u bema’nilikni xush ko'radi. Qonun farovonlik yolidir, shunday ekan, sohibi qonun tarbiyani mustahkamlashga alohida harakat qilishi zarur”[5]- deb fikr bildiradi. Uning qarashlariga ko‘ra, bolaning axloqiy fazilatlari va xulq-atvori tarbiya hamda ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi. Darhaqiqat, insonning xulq-atvori va shaxsiy xususiyatlari u voyaga yetayotgan oila hamda jamiyat muhiti bilan chambarchas bog‘liq.Bugungi maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasi, ta’lim-tarbiya jarayoni va faoliyatini tashkil etish usullari avvalgi davrga nisbatan sezilarli darajada o‘zgargan. Mazkur o‘zgarishlarni quyidagi statistik ko‘rsatkichlar orqali ko‘rish mumkin.

Ko‘rsatkichlar	Oldingi holat (2017-yilgacha)	Bugungi holat (2026-yil)	O‘zgarish dinamikasi
Bog‘chalarning umumiy soni	5 211 ta	39 283 ta	~7,5 barobar ko‘paydi
Bolalar qamrov darajasi	27 %	77 %	50 % ga oshdi
Tarbiyalanuvchilar soni	~608 500 nafar (2000-y.)	2 530 000+ nafar	~4 barobar ko‘paydi
Oilaviy nodavlat bog‘chalar	Deyarli mavjud bo‘lmagan	29 196 ta	Tizimning asosiy drayveriga aylandi

Jadval[6]

Mazkur ko‘rsatkichlar maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida yuzaga kelgan o‘zgarishlarni ifodalaydi. Ushbu jarayonda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, bolalarni ta’lim bilan qamrab olish va nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim o‘rin tutadi. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-son qarori bilan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan. Unda bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish hamda pedagog

[5] Fozil odamlar shahri. - T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. — 74- bet
[6] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy veb-sayti. — URL: stat.uz.

kadrlarning kasbiy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan vazifalar belgilangan”[7]. Maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayoni ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash, pedagoglar uchun yangi o‘quv qo‘llanmalari va dasturlarni joriy etish hamda malaka oshirish mashg‘ulotlarini tashkil etish orqali amalga oshirilmoqda. Shuningdek, bolalarning ovqatlanish tartibi va oziq-ovqat mahsulotlari sifatiga ham e’tibor qaratilmoqda. Har bir mavsum uchun maxsus menyular ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilgan. Ushbu chora-tadbirlar davlat, nodavlat va ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini ham qamrab oladi.

Maktabgacha ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarni ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish usullarida ham kuzatish mumkin. Avvalgi davrda mashg‘ulotlar, asosan, an’anaviy metodlar asosida tashkil etilgan. Jumladan, tarbiyachi bolalarga ertak aytib berish, kitob o‘qish, rasm chizish va bo‘yash kabi faoliyat turlarini amalga oshirgan. Hozirgi vaqtda esa maktabgacha ta’lim tashkilotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, didaktik o‘yinlar, musiqiy mashg‘ulotlar, konstruktorlar va milliy yumshoq o‘yinchoqlardan keng foydalanilmoqda. Bolalarning intellektual va psixologik rivojlanishini ta’minlash maqsadida ta’lim-tarbiya jarayoniga hayotiy misollar va amaliy mashg‘ulotlar tatbiq etilmoqda. Bundan tashqari, pedagoglar ota-onalar bilan hamkorlikda faoliyat olib boradilar. Bunday hamkorlik ta’lim-tarbiya jarayonining uzviyligini ta’minlashga xizmat qiladi. Pedagoglar bolalar bilan ishlashda psixologik yondashuvlardan ham foydalanadilar. Jumladan, bolalarda o‘z-o‘zini baholash, mustaqil fikrlash va o‘ziga ishonch ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor qaratiladi.

Maktabgacha ta’lim tizimida erishilayotgan natijalar bilan bir qatorda, ayrim muammolar ham mavjud. Ulardan biri malakali pedagog kadrlar yetishmasligi va tarbiyachilarning tibbiy ko‘rikdan o‘z vaqtida o‘tmasligi bilan bog‘liq. Shuningdek, moliyaviy ta’minotdagi kamchiliklar, ota-onalar bilan hamkorlikning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi hamda pedagoglar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan e’tiborsizlik holatlari ta’lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Chekka hududlarda infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ayrim ta’lim tashkilotlarida o‘quv dasturlarini amaliyotga tatbiq etish va yangi pedagogik metodlardan foydalanish borasida ham kamchiliklar uchraydi. Shuningdek, talab darajasiga javob bermaydigan ayrim nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining faoliyati ham sohada mavjud muammolardan biridir. Chekka hududlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonining yetarli emasligi, mavjud tashkilotlarda ta’lim xizmatlarining moliyaviy jihatdan aholiga qiyinchilik tug‘dirishi hamda bolalarning ijtimoiy muhitga moslashuvida yuzaga keladigan ayrim qiyinchiliklar ushbu sohada hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar sirasiga kiradi. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

“O‘zbekistonda nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish va sohadagi tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Prezidentning 2026-yil 5-fevraldagi PF-19-son Farmoni hamda undan oldingi normativ-huquqiy hujjatlar

[7]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ–4312-son Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: lex.uz.

asosida turli imtiyoz va qulayliklar yaratilgan. Pedagog kadrlarning kasbiy malakasini oshirish maqsadida dual ta’lim tizimi ham yo‘lga qo‘yilgan. Hozirgi vaqtda 10 931 nafar maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi ushbu ta’lim shaklida tahsil olmoqda. Chekka hududlarda mas’ul mutaxassislar tomonidan yangi o‘quv dasturlarining mazmuni va ulardan foydalanish tartibi yuzasidan tushuntirish ishlari olib borilmoqda”[8]. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimida ish tajribasi kam yoki yangi ish boshlagan xodimlarning ilg‘or tajribaga ega tashkilotlar faoliyati bilan tanishishi va amaliy tajriba orttirishi imkoniyati ham mavjud. Ushbu yondashuv pedagoglarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarbiyachilar yiliga bir marta tibbiy va psixologik ko‘rikdan o‘tkaziladi. Mazkur ko‘riklarning bepul tashkil etilishi pedagog xodimlarning salomatligini nazorat qilish va ularning mehnat faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv jarayonida O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilish borasida muhim natijalarga erishilmoqda. Ilm-fan va ta’lim sohasiga qaratilayotgan e’tibor pedagog xodimlarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish bilan bir qatorda, bolalarga milliy qadriyatlar, urf-odatlar va axloqiy me’yorlarni singdirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Kelajak avlodning har tomonlama rivojlanishi, intellektual salohiyati va ijtimoiy faolligi ko‘p jihatdan maktabgacha ta’lim jarayonining sifatiga bog‘liq. Shu sababli bolalarning erta yoshdan boshlab rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularning ta’lim-tarbiya jarayoniga tizimli yondashish hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Taraqqiyot strategiyasi” oid normativ-huquqiy hujjatlar.

2. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar. 6-bet.

3. Fozil odamlar shahri. - T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. — 74- bet

4.Mutolova D., Tojiboyeva G., Mahmudova D. “Maktabgacha ta’limda pedagogika”. — 2022.

5.Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Qayumova N.M., A’zimova M. “Maktabgacha pedagogika”. — Tafakkur nashriyoti, 2019.

6. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi.

Foydalanilgan internet manbalari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF–158-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: lex.uz.

[8] • O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi «Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–19-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: lex.uz.
• O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy veb-sayti. — URL: https://www.edu.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi 464-I-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ–637-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

— URL: lex.uz.

5. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) // O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi rasmiy veb-sayti. — URL: uzedu.uz.

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy veb-sayti. — URL: stat.uz.